

MINTAQALARDA SANOAT TARMOG‘I SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Mirzayeva Intizor Ergashevna

InFinBank AJ Bosh ofisi,
Yakuniy nazorat inspektori
(Xorazm viloyati filiali),
Abu Rayhon Beruniy nomidagi
Urganch Davlat Universiteti
mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya

Maqolada samaradorlik va sanoat tarmoqlarining iqtisodiy samaradorligining hududiy xususiyatlari bo‘yicha olimlarning qarashlari umumlashtirilgan va mualliflik yondashuvi ishlab chiqilgan. Xorazm viloyati sanoati rivojlanishi va uning iqtisodiy samaradorligi mezonlari iqtisodiy-statistik usullar yordamida tadqiq qilingan. Olingan natijalarga asosan viloyat va uning hududlarida sanoat iqtisodiy samaradorligini oshirish bo‘yicha takliflar berilgan.

Kalit so‘zlar: sanoat; samaradorlik; mintaqa; mehnat samaradorligi; kapital qaytimi; korrelyatsiya; regressiya; statistik tahlil.

Аннотация

В статье обобщены взгляды ученых эффективности и экономической эффективности промышленности на территориальные особенности и разработан авторский подход. С помощью экономико-статистических методов изучены критерии развития промышленности Хорезмской области и ее экономическая эффективность. На основе полученных результатов сформулированы предложения по повышению экономической эффективности промышленности области и их региона.

Ключевые слова: промышленность; эффективность; регион; производительность труда; капиталододача; корреляция; регрессия; статистический анализ.

Abstract

The article summarizes the views of scientists on the efficiency and economic efficiency of industry on territorial features and develops the author's approach. With the help of economic and statistical methods, the criteria for the development of industry in the Khorezm region and its economic efficiency are studied. Based on the results obtained, proposals are formulated to improve the economic efficiency of industry in the region and their region.

Keywords: industry; efficiency; region; labor productivity; capital productivity; correlation; regression; statistical analysis.

KIRISH

Mamlakat va mintaqa iqtisodiyotini barqaror rivojlantirish iqtisodiyotning fundamental masalasi hisoblanadi. Shunday ekan, mazkur masalalar soha va tarmoqlarning o‘shiga, yaratilgan mahsulotlarning ijobiy o‘zgarishiga, eksport

ko‘lamining ortishiga, bir so‘z bilan aytilganda, iqtisodiy rivojlanishga asoslanadi. Ushbu jarayonni amalga oshirishda ikki jihatga, ya‘ni resurs va natijaga e‘tibor qaratishimiz zarur. Ya‘ni, ishlab chiqarishning uzluksizligi, tarmoqlar faoliyatining ijobiy o‘sishi resurslarning soni va sifatiga bog‘liq. Shuningdek, natijaviylikda esa yuqoridagi omillarning samaradorligi muhim sanaladi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Ko‘plab rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotiga xos bo‘lgan xususiyatlardan biri — ularning o‘zlarida resurslar yetarli bo‘lmasada, innovatsiyalar, ilg‘or texnologiyalar hisobiga samaradorlikni yuqori darajasini ta‘minlab kelishmoqda. Shu bois, samaradorlik masalasini o‘rganish, tahlil qilish, unga mos usullar asosida joriy holatni baholash asosida tegishli mezonlarni istiqbolda oshirish imkoniyati yaratiladi. Dastlab, samaradorlik, uning sanoatga xos xususiyatlarini qarab o‘tamiz. Chunki, sanoat qolgan tarmoqlarga nisbatan yuqori samaradorlikka ega hisoblanadi. Ya‘ni, sanoat tarmog‘i, barcha mamlakatlarning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy manfaatlarini birlashishiga, ya‘ni iqtisodiy integratsiya sifatida o‘z ifodasini topmoqda[1].

B.Baxtiyorov fikriga ko‘ra, samara tushunchasi lotincha “Effectus” so‘zidan olingan bo‘lib, har qanday xatti-harakatning yakuniy natijasini ifodalaydi. Samaradorlik tushunchasi esa iqtisodiy kategoriya sifatida ko‘zlangan maqsadlarga erishishning nisbiy ko‘rsatkichlarini tavsiflaydi. Aksariyat holatlarda korxonalar boshqaruvi amaliyotida uning samaradorligi ko‘rsatkichini baholashda erishilgan natija va xarajatlar o‘rtasidagi nisbatga asoslanadi. Shuningdek, ushbu ko‘rsatkichni baholashning tizimli yondashuvida esa kutilayotgan va erishilgan natijalar o‘zaro qiyosiy taqqoslangan holda amalga oshiriladi. Muallif fikricha, yuqorida keltirilgan samaradorlik ko‘rsatkichini baholash uslubiyotlari turli ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarning samaradorligini baholashda qo‘llaniladi. Shuningdek, ular foydalanish uchun osonligi bilan ajralib turadi[2].

Yuqoridagilar qatori, aynan sanoat samaradorligini, uning hududiy xususiyatlarini tadqiq qilgan ishlarga ham to‘xtalib o‘tamiz. Ya‘ni D.V.Trostyanskiy tadqiqotlarida hududning sanoat tarmog‘ida resurs salohiyatidan samarali foydalanishini ta‘minlash mintaqada yuritilayotgan sanoat siyosatiga bog‘liq, deya tavsiflagan. Shu bilan birga, sanoat samaradorligini innovatsiyalar bilan bog‘laydi[3].

L.D.Badriyeva fikricha, hududiy resurs salohiyatidan sanoatda samarali foydalanish bu resurslarni jalb etish va ulardan foydalanish asosidagi natijalardir. Jumladan, hududiy resurslardan foydalanish samaradorligi uch bosqichda olib boriladi. Bunda hududlarning sanoat uchun resurs salohiyati belgilanadi, ularni ishlab chiqarishga jalb etiladi va resurslardan foydalanish jarayoni baholanadi[4].

Sh.Doniyorova esa sanoat samaradorligini omillar kesimida, xususan mehnat resurslari misolida ko‘rib o‘tgan. Jumladan, sanoat korxonalarida mehnat resurslaridan samarali foydalanish ular o‘rtasida o‘zaro munosabatlarni ta‘minlash, yaxlit tizim ichida maxsus tamoyillar asosida funksiyalarni birlashtirish va integratsiyalash hamda muvofiqlashtirishga yo‘naltirilgandir”, deya sanoatdagi mehnat omili samaradorligiga tavsif bergan[5].

Demak, yuqoridagilar asosida xulosa qilsak, samaradorlik natijaviy kattalik boʻlib, uni tavsiflashda olingan faoliyat natijasini unga erishish uchun sarflangan resursga nisbati orqali ifodalaymiz. Shuningdek, uning hududiy sanoat boʻyicha talqin qilganimizda mavjud resurs salohiyatiga alohida eʼtibor qaratishimiz zarur. Chunki, hududning resurs salohiyati sanoat ishlab chiqarish yoʻnalishini, uning samaradorligini belgilashda muhim manba sanaladi.

METODOLOGIYA

Sanoat samaradorligini baholashda mavjud usullarni tahlil qilishimiz maqsadga muvofiq. Mualliflar sanoat sohasining rivojlanishini, uning resurslardan samarali foydalanish jihatlarini baholashda diskontlash usullaridan foydalanganlar[6]. Shu bilan birga, samaradorlikni, sanoat samaradorligini hududiy xususiyatlari boʻyicha baholashda ekspert usullaridan foydalanish ilgari surilgan. Shuningdek, mualliflar mazkur usul orqali mintaqa hududlaridagi sanoat rivojlanishi va unda resurs salohiyatidan foydalanishni tadqiq qilishgan[7]. Hududiy sanoat tarmoqlari rivojlanishi, ularda mavjud resurslardan foydalanish samaradorligini baholashda, omillar taʼsirini oʻrganishda ekspert va ekonometrik usullar ilgari solingan[8].

Yuqoridagi tadqiqotlar, izlanishlarda ilgari surilgan usullarni umumlashtirish hamda Xorazm viloyati sanoatining oʻziga xos xususiyatlarini hisobga olib statistik kuzatish, analiz va sintez, omillar tahlili, korrelyatsiya va regressiya, qiyosiy tahlili, solishtirma baholash kabi usullardan foydalanamiz. Mazkur usullar asosida Xorazm viloyati sanoatiga tegishli iqtisodiy-ijtimoiy koʻrsatkichlarni tadqiq qilamiz.

TAHLIL VA NATIJALAR

Xorazm viloyati sanoati mintaqa iqtisodiyotining asosiy tarmogʻi hisoblanadi. Viloyatda yaratilgan yalpi hududiy mahsulotning asosiy qismini sanoat tarmogʻi tomonidan yaratiladi. Shunday boʻlsada, 2010-2024-yillar davomida viloyat sanoatining aholi jon boshiga toʻgʻri kelgan hajmining ijobiy oʻzgarishlari qatori 2016-yilda salbiy holat ham kuzatilgan (1-jadval). Bunga sabab mazkur davrda mintaqada ishlab chiqarilgan tovar va xizmatlarga boʻlgan xorijiy talabdagi oʻzgarishlar hisoblanadi.

Shunday boʻlsada, tadqiqot davri davomida Xorazm viloyatida yaratilgan sanoat mahsulotining aholi jon boshiga toʻgʻri kelgan hajmi oʻrtacha 108,9 foizga oʻsgan. Bu esa, 2010-2024-yillar davomida Xorazm viloyatida sanoat mahsulotlarining aholi jon boshiga toʻgʻri kelgan hajmi 2 barobarga ortgan¹. Oʻzbekiston Respublikasida ushbu koʻrsatkichning oʻrtacha miqdori 0,8-martga oʻsgan. Demak, Xorazm viloyati sanoat tarmogʻining miqdoriy oʻzgarishlari oʻzida ijobiy oʻzgarishlarni ifodalamoqda. Lekin, ularning rivojlanish darajasini iqtisodiy-statistik usullar orqali tadqiq qilamiz.

Buning uchun respublika mintaqalarining sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining aholi jon boshiga toʻgʻri kelgan koʻrsatkichlarini guruhlaymiz. Mazkur

¹ Muallif hisob-kitobi.

tadqiqotni amalga oshirishda respublika mintaqalarini 5 ta guruhga ajratib olamiz¹. Bunda Sterjes usulidan foydalandik[9].

Shuningdek, guruhlar soniga muvofiq respublika viloyatlarining sanoat tarmog‘ini rivojlanish holatini iqtisodiy-statistik tadqiqotini amalga oshirdik (2-jadval).

1-jadval

O‘zbekiston Respublikasi va uning mintaqalarida aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari hajmining o‘shish sur‘ati²

(o‘tgan yilga nisbatan, foizda)

Mintaqalar nomi	2010	2011	2012	2013	2014	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024	O‘rtacha (2010-2024-yillar)
O‘zbekiston Respublikasi	103	101,6	104,2	105,8	102,8	103,5	103,6	103,4	108,9	103	98,9	106,6	103,2	104,1	104,4	103,8
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	103,4	106,1	101,4	105,1	106,6	119,6	162	106,7	102,7	103,5	101,1	106	99,1	97,5	104,8	108,4
Andijon viloyati	104	102,8	105	111	103,6	85,4	71,6	121,4	128,4	112,6	104,3	96,8	120,2	105,1	105,1	105,2
Buxoro viloyati	104,6	103	101	104,8	106,5	107	103,1	95,6	100,4	108,8	100,1	98,7	104,3	104,6	104,7	103,1
Jizzax viloyati	109,7	108,7	105,8	106,9	107,5	114,8	118,8	109,2	106,8	101,3	115,9	108,1	105,8	105,2	103,2	108,5
Qashqadaryo viloyati	92,2	97,2	94,4	98,9	101,3	100,4	99,9	103	102,2	92,1	101	113,2	107,8	105,1	105,2	100,9
Navoiy viloyati	96,5	100,3	100,4	99,8	101,5	99,4	99,6	96	99,6	102,5	107,3	105	104	105,1	106,3	101,6
Namangan viloyati	114,5	110,1	106,6	106,3	110,8	109,7	109,8	109,7	108,8	108,2	112,9	115,8	106,7	105,3	105,8	109,4
Samarqand viloyati	110,9	101,7	114,3	106,6	111,7	108,4	106,5	100,1	110,1	103,4	103,4	108,9	106,3	103,5	105	106,7
Surxondaryo viloyati	106,6	101,6	104,1	102,7	108,7	105,2	104,2	95,9	103,8	104,7	104,5	107,4	101,9	103,8	104,1	103,9
Sirdaryo viloyati	104	107,1	105,5	98,8	102,8	103,7	110	90,3	102,5	101,3	99,1	116,3	106,9	105,1	105	103,9
Toshkent viloyati	103,6	99,4	100,2	108,4	103,9	104,3	104,3	101,5	113,4	105,8	104,8	114,2	103,8	103,4	104,4	105,0

¹ Guruhlashda quyidagi formuladan foydalanib, hisob-kitob qildik va uning sonini 5 ga tengligini aniqladik ($n=1+3,322 \cdot \lg N$, bunda: n – mintaqa hududlarini raqobatbardoshlik ko‘rsatkichi bo‘yicha guruhlar soni; N – kuzatishlar soni).

² O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Mintaqalar nomi	2010	2011	2012	2013	2014	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024	O'rtacha (2010-2024-yillar)
Farg'ona viloyati	91,4	98,8	99,2	104	107,1	102,2	99,9	93,4	104,6	100,8	102,3	106,5	102,4	103,8	102,2	101,2
Xorazm viloyati	104,1	111,5	104,7	109,7	119,3	123,9	90,4	116,3	106,2	105,7	104,4	115,5	113	104,5	105	108,9
Toshkent shahri	110,6	108,5	111,2	111,5	114,8	111,1	110,3	110,2	108,3	103,3	96,4	108,8	103,1	102,6	105,6	107,8
O'rtacha (mintaqalar bo'yicha)	104,0	104,1	103,8	105,3	107,6	106,8	106,5	103,5	107,0	103,9	104,1	108,7	106,1	103,9	104,7	105,3

Natijada respublikaning 5 ta mintaqasida sanoatning aholi jon boshiga to'g'ri kelgan hajmining o'sishi bo'yicha holati yuqori, "a'lo" mezoniga tegishli bo'ldi. Jumladan, mazkur guruhga Qoraqalpog'iston Respublikasi, Jizzax viloyati, Namangan viloyati, Xorazm viloyati, Toshkent shahri to'g'ri kelgan. Shuningdek, eng yuqori oraliqqa tegishli mintaqalar respublika viloyatlarining 35,71 foizini tashkil qilgan. Ushbu oraliqda Xorazm viloyati ham joy olgan.

Shunday bo'lsada, ushbu holatning uzoq muddatli barqaror rivojlanishini ta'minlash uchun innovatsiyalarga, yangi texnologiyalarni joriy qilishga hamda zamonaviy boshqaruv usullarini ishlab chiqarishga keng tatbiq qilishga to'g'ri keladi. Bunda birinchi navbatda ishlab chiqarish omillaridan, xususan mehnat va kapital samaradorligini baholaymiz.

2.-jadval

O'zbekiston Respublikasi va uning mintaqalarida aholi jon boshiga sanoat ishlab chiqarish rivojlanishining iqtisodiy-statistik tahlil natijalari¹

Respublika mintaqalarida aholi jon boshiga sanoat o'sish sur'atining statistik tavsifi		Respublika mintaqalarida aholi jon boshiga sanoat o'sish sur'atining sifat mezonlari	Respublika mintaqalarida aholi jon boshiga sanoat o'sish sur'atining oraliq ko'rsatkichlari		Respublika mintaqalarida aholi jon boshiga sanoat o'sish sur'atining oraliqlari bo'yicha hududlar soni va ulushi		Respublika mintaqalarida aholi jon boshiga sanoat o'sish sur'atining oraliqlari bo'yicha nomi
			≥	<	soni	ulushi	
O'rtacha qiymatlar	105,3281	A'lo	109,4	107,7	5	35,71	Qoraqalpog'iston Respublikasi, Jizzax viloyati, Namangan viloyati, Xorazm viloyati, Toshkent shahri
Standart xatolik	0,798672						
Mediana	105,09	Yaxshi	107,7	106,0	1	7,14	Samarqand viloyati
Standart chetlanish	2,988358						

¹ O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari.

Respublika mintaqalarida aholi jon boshiga sanoat o'sish sur'atining statistik tavsifi		Respublika mintaqalarida aholi jon boshiga sanoat o'sish sur'atining sifat mezonlari	Respublika mintaqalarida aholi jon boshiga sanoat o'sish sur'atining oraliq ko'rsatkichlari		Respublika mintaqalarida aholi jon boshiga sanoat o'sish sur'atining oraliqlari bo'yicha hududlar soni va ulushi		Respublika mintaqalarida aholi jon boshiga sanoat o'sish sur'atining oraliqlari bo'yicha nomi
			≥	<	soni	ulushi	
Ko'rsatkichlar dispersiyasi	8,930285	O'rta	106,0	104,3	2	14,29	Andijon viloyati, Toshkent viloyati
Ekssess	-1,44428						
Asimmetriklik	-0,10413	Qoniqarli	104,3	102,6	3	21,43	Buxoro viloyati, Surxondaryo viloyati, Sirdaryo viloyati
Interval	8,473333						
Ko'rsatkichlar minimumi	100,9267	Qoniqarsiz	102,6	100,9	3	21,43	Qashqadaryo viloyati, Navoiy viloyati, Farg'ona viloyati
Ko'rsatkichlar maksimumi	109,4						
Ko'rsatkichlar jami summasi	1474,593						
Kuzatishlar soni	14						
<i>Umumiy taqsimot qiymatlari</i>					14	100	

Xorazm viloyatida sanoatning mehnat samaradorligi ko'rsatkichi 2010-2023-yillarda ijobiy darajada o'sib borgan (3-jadval). Shunday bo'lsada, viloyat va uning hududlarida notekis o'zgarishlar aks etmoqda. Jumladan, yuqori ko'rsatkich Tuproqqal'a tumaniga (2023-yilda 529,5 mln.so'm) to'g'ri kelgan. Shunday bo'lsada, undan keyingi o'rinda Urganch shahri to'g'ri kelgan bo'lib, Tuproqqal'a tumaniga nisbatan 15,8-marta past. Bu esa, mehnat samaradorligini innovatsiya-investitsiya omiliga yuqori bog'liqlikni ifodalamoqda. Chunki, yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan Tuproqqal'a tumanida avtomobilsozlik sanoati va unga ehtiyot qismlar ishlab chiqaruvchi korxonalar joylashgan. Ularning ishlab chiqarish texnologiyasi esa mintaqadagi qolgan sanoat tarmoqlariga nisbatan yuqori kapital intensivlikka ega hisoblanadi. Shu bois, viloyatning sanoat tarmog'i samaradorligini to'liq baholash uchun investitsiyalar samaradorligini, xususan kapital qaytimini tadqiq qilamiz.

3-jadval

Xorazm viloyati sanoat tarmog'ining mehnat samaradorligi holati

Hududlarning nomi	2010	2015	2020	2021	2022	2023
Xorazm viloyati	1,0	3,8	13,4	18,8	19,9	22,1
Urganch sh.	4,0	8,0	22,5	25,5	30,5	33,6
Xiva sh.			4,1	4,0	4,6	5,0
tumanlar:						
Bog'ot	0,9	2,0	4,9	6,8	7,2	8,1
Gurlan	0,6	1,8	7,8	7,7	8,9	9,5
Qo'shko'pir	0,5	1,8	4,5	5,9	5,8	6,1
Urganch	0,6	2,0	4,6	10,8	10,1	11,6
Hazorasp	1,1	13,4	4,4	5,4	4,9	0,4
Tuproqqal'a			174,4	287,9	406,1	529,5
Xonqa	1,0	2,9	7,3	8,7	9,4	10,4

Hududlarning nomi	2010	2015	2020	2021	2022	2023
Xiva	0,3	1,5	5,1	4,9	5,5	6,1
Shovot	0,6	2,7	4,8	5,4	5,0	4,6
Yangiariq	0,6	2,1	6,3	6,5	7,0	7,3
Yangibozor	0,7	2,0	8,4	13,8	13,4	15,3
O'rtacha (hududlar bo'yicha)	1,0	3,6	19,9	30,3	39,9	49,8

Xorazm viloyatida sanoatning kapital samaradorligi shahar va tumanlar kesimida notekis o'zgarishga ega bo'lgan (4-jadval). Jumladan, ushbu ko'rsatkichning 2010-2023-yillardagi o'rtacha ko'rsatkichi viloyatda 1,7 birlikka teng bo'lgan. Viloyatga nisbatan yuqori ko'rsatkichlar Urganch shahri (1,8), Xazorasp (3,9), Tuproqqal'a (18,3), Xonqa (1,8) tumanlariga to'g'ri kelmoqda. Ushbu ko'rsatkichlardan ko'rinib turibdiki, mintaqa shahar va tumanlarida kapital qaytimi investitsiyalarning tarkibiy tuzilishiga ham yuqori bog'liqlikka ega bo'lgan. Jumladan, yuqori ko'rsatkichlarga ega bo'lgan hududlarda yalpi investitsiyalardagi xorijiy investitsiyalarning ulushi yuqori ko'rsatkichlarga ega hisoblanadi. Demak, mintaqada sanoat samaradorligini oshirish, tarmoqdagi resurslardan oqilona va maqbul foydalanishda xorijiy investitsiyalarga, innovatsion texnologiyalarga e'tibor qaratishni talab etadi.

Shunday ekan, mintaqa sanoati rivojlanishining investitsiya omilini korrelyatsion-regression tahlilini amalga oshiramiz. Bu esa, investitsiya omilini sanoat samaradorligiga, uning o'zgarishiga ta'sirini to'liq baholash imkonini beradi. Olib borilgan ekonometrik tadqiqotlar natijasida ushbu ikki kattalik o'rtasidagi 2010-2024-yillardagi korrelyatsion bog'liqlik ijobiy ko'rsatkichga ega ekanligini aniqladik (0,688).

4-jadval

Xorazm viloyati sanoat tarmog'ining kapital samaradorligi holati

Hududlarning nomi	2010	2015	2020	2021	2022	2023	O'rtacha (2010-2023-yillar)
Xorazm viloyati	2,0	1,7	1,8	1,6	1,6	1,6	1,7
Urganch sh.	4,7	1,2	1,2	1,1	1,1	1,1	1,8
Xiva sh.			0,7	0,3	0,3	0,3	0,7
tumanlar:							
Bog'ot	1,4	1,4	0,7	1,1	0,8	0,8	1,4
Gurlan	1,5	1,3	1,4	1,0	1,1	1,0	1,5
Qo'shko'pir	1,3	1,5	0,9	0,9	0,8	0,8	1,1
Urganch	0,9	1,0	0,8	1,6	1,3	1,4	0,9
Hazorasp	2,2	6,0	1,0	0,5	0,7	0,1	3,9
Tuproqqal'a			20,7	18,3	17,4	16,9	18,3
Xonqa	2,2	1,8	0,9	1,2	1,0	1,0	1,8
Xiva	0,9	1,1	1,3	0,6	0,7	0,7	0,9
Shovot	1,2	1,3	1,0	0,9	0,9	0,8	1,2
Yangiariq	1,3	1,2	0,9	0,3	0,3	0,3	1,2
Yangibozor	1,5	1,1	1,0	1,3	1,1	1,1	1,1
O'rtacha (hududlar bo'yicha)	1,8	1,7	2,5	2,2	2,1	2,0	2,8

Shuningdek, regression tahlillarimiz natijasida ham ijobiy, yuqori ta'sirchanlik investitsiyalarga tegishlilikini ochib berdik. Jumladan, regression tahlilda chiziqli tenglamani tuzib oldik.

$$San_t = f(Inv_t, \varepsilon_t) \quad (1)$$

Bunda: San_t – Xorazm viloyati sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi; Inv_t – Xorazm viloyatiga kiritilgan investitsiyalar hajmi.

Mazkur ko'rsatkichlar ostida Xorazm viloyatida ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari va iqtisodiyotga kiritilgan investitsiyalarning regression bog'liqligini ko'rib o'tamiz. Shu bois, (1) formulani logarifmlab olamiz. Natijada quyidagi tenglik hosil qilindi.

$$\text{Log}(San_t) = a * \text{log}(Inv_t) + \varepsilon_t \quad (2)$$

Ushbu tenglikni statistik ma'lumotlar asosida hisob-kitob qilish natijasida quyidagi ekonometrik bog'liqlikni o'z ichiga olgan tenglikni hosil qildik:

$$\text{Log}(San_t) = 1,24 * \text{log}(Inv_t) - 0,73 \quad (3)$$

$(R^2=0,687806, F_{\text{Fisher}}=9,875909, P_{\text{qiymati}}=0,009365)$

Regressiya tahlillarimiz natijasini ifodalashicha, investitsiyalarning bir foizga o'zgarishi sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishni 1,24 foizga mos yo'nalishda o'zgarishlarga olib kelmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqorida olib borilgan tadqiqotlarimiz asosida xulosa qilsak, Xorazm viloyatida sanoat ishlab chiqarishning kelgusi yillarda samaradorligini oshirish uchun ishlab chiqarish omillarining miqdor jihatlariga hamda ularning tarkibiy tuzilishiga e'tibor qaratishimiz zarur. Jumladan quyidagilarni taklif qilamiz:

- Asosiy va inson kapitaliga yo'naltirilgan investitsiyalar ko'lamini oshirish.
- Investitsiyalar tarkibidagi xorijiy, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar ko'lamini kengaytirish.
- Sanoatning ishchi-xodimlari tarkibini sifat jihatidan o'zgartirish, ularning malaka-ko'nikmalarini muntazam oshirish.

Mazkur tadbirlarni amalga oshirish natijasida viloyatda sanoat tarmog'ining iqtisodiy samaradorligi o'sib, mintaqa iqtisodiyotining barqaror rivojlanish davomiyligi ta'minlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ismanov I.N., Salimov G.Q. sanoat korxonlari qiymatini baholashni takomillashtirish masalalari. "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 6, noyabr-dekabr, 2017-yil // www.iqtisodiyot.uz.

2. BAXTIYOROV B.B. Sanoat korxonalarining innovatsion boshqaruvi samaradorligini baholashning ilmiy-uslubiy asoslari // Iqtisod Va Moliya / Экономика и Финансы 2021, 10 (146). 13-22 b.

3. Тростянский Д.В., Айдинова М.А. Методология и императивы эффективного использования ресурсного потенциала промышленности на региональном уровне. «Иқтисодий ва барқарор ривожланишни таъминловчи ички имкониятларни аниқлаш ва захираларни сафарбар қилишнинг илмий-

методик асослари» номли илмий мақолалар тўплами. 1-қисм. Т. CEDR, 2017 й. 17-б.

4. Бадриева Л.Д. Современные тенденции и закономерности эффективного использования ресурсного потенциала. // Российское предпринимательство. 2011. № 10. С.57.

5. Sh.Doniyorova. International scientific and practical conference “Economics, management and digital innovation in education: modern trends and approaches” March 13, 2024. 149-153 b.

6. Ismanov I.N., Salimov G‘.Q. Sanoat korxonalari qiymatini baholashni takomillashtirish masalalari. “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 6, noyabr-dekabr, 2017-yil // www.iqtisodiyot.uz.

7. Тростянский Д.В., Айдинова М.А. Методология и императивы эффективного использования ресурсного потенциала промышленности на региональном уровне. «Иқтисодиётни барқарор ривожланишини таъминловчи ички имкониятларни аниқлаш ва захираларни сафарбар қилишнинг илмий-методик асослари» номли илмий мақолалар тўплами. 1-қисм. Т. CEDR, 2017 й. 17-б.

8. Rustamov N.I., Tuxtayeva M.Sh. Sanoat korxonalarida hududiy resurs salohiyatidan samarali foydalanish yo‘llari // “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 6, noyabr-dekabr, 2020-yil. 93-99b.

9. Дуплякин В.М. Особенности идентификации нормального закона распределения // Вестник Самарского университета. 2020, 11(3). С. 176-183. DOI: 10.18287/2542-0461-2020-11-3-176-183; <https://klikunov-nd.livejournal.com/485677.html>.



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir: Xakimov Ziyodulla Axmadovich
Ingliz tili muharriri: Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich
Rus tili muharriri: Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li
Musahhah: Karimova Shirin Zoxid qizi
Sahifalovchi va dizaynerlar: Sadikov Shoxrux Shuxratovich
Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2025-yil, iyun, 6-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: info@marketingjournal.uz
Bot: [@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)
Tel.: +998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710. ГОСТ 7.56-2002** " Seriyali nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlataro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**